
Yoshlar va ta'lim. Ishonch va mas'uliyat muborak, yosh shifokorlar!

Joriy yilning 8 yanvar kuni tibbiyot oliy ta'lim muassasasini tamomlaganligi to'g'risidagi hujjatni qo'lga kiritgan barcha yosh shifokorlar o'z mutaxassisligi bo'yicha tibbiyot dargohlarida mehnat faoliyatini boshlaydigan bo'ldilar

Davlatimiz rahbari SHavkat Mirziyoev ishtirokida bo'lib o'tgan 2017 yilning 12 dekabr kuni selektor yig'ilishida mamlakatimizning sog'liqni saqlash tizimi istiqbollari xususida so'z yuritilib, unda yosh tibbiy kadrlarni amaliy faoliyatga to'liq jalb etish, bu borada yangi imkoniyat va qulayliklar yaratish kabi muhim vazifalar belgilangan edi.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining bakalvriat hamda klinik ordinatura bo'limi bitiruvchilariga tizimda ilk marotaba muddatdan ilgari sertifikatlar topshirilib, tibbiyot muassasalarida mehnat faoliyatlarini boshlashlariga keng yo'l ochildi. Bu esa sog'liqni saqlash sohasida yosh kadrlarning bilim va salohiyatidan samarali foydalanish barobarida ularga bildirilgan katta ishonchning amaliy ifodasi bo'ldi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Farg'ona filialida tibbiy profilaktika ishi yo'nalishining 53 nafar bakalvriat hamda klinik ordinatura bo'limining 12 nafar bitiruvchilariga tegishli ixtisosliklar bo'yicha sertifikatlar topshirish marosimi o'tkazildi.

Bitiruvchilarga "Vrach umumiy gigienist, epidemiolog" ixtisosligi bo'yicha bakalavr darajasi hamda "Epidemiolog", "Mehnat gigienasi", "Potologik anotomiya", "Kommunal gigienasi" ixtisosliklari bo'yicha klinik ordinator sertifikatlari tantanali topshirildi.

Yosh shifokorlar, ularning ota-onalari, professor-o'qituvchilar vakillari o'z tabriklari va minnatdorliklarini bildirishdi.

-Men bugun 6 yillik egallagan nazariy bilimlarimni amaliy faoliyatda qo'llash, xalqimiz salomatligi saqlashda munosib ishtirok etish imkoniyatini beradigan sertifikatga ega bo'ldim, - deydi tibbiy profilaktika ishi yo'nalishi bitiruvchisi Mohidil Baratova. - Ertadan viloyat davlat sanitariya-epidemiologiya nazorat markazida kommunal gigiena shifokori sifatida mehnat faoliyatimni boshlayman. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan yosh tibbiy kadrlarga ko'rsatilayotgan e'tibor va imkoniyadan behad minnatdorman.

Malikjon Nuraliev, Yulduzxon Jo'raeva, Shoxista Ismoilova, Nodira SHokolonova, Komil To'lqinboev, Ozodbek Hikmatov, Hayotjon Nuriddinov kabi bitiruvchi-yoshlarning Vatanimiz tibbiyoti istiqbolida munosib o'rin egallashiga ishonch bildirildi.

Dilnavoz QO'LDOSHEVA,

"Farg'ona haqiqati" muxbiri.

Jahongir Mirzamatov olgan surat.

2018-01-10 16:53:40